

**GLOBALLASHUV JARAYONIDA GENDER MUVOZANATINING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**
Abduraxmonova Muattar Baxodir qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi
E-mail: abduraxmonovamuattar7@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada xotin- qizlarimizning ta'lim olishi, ularning jamiyatda o'z o'rmini topishi xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, jamiyatda ayollar va erkaklar teng ekanligi, qizlarning bilim olishi qanchalik muhim ekanligi, ular kelajakka bilimdon va o'qimishli farzandlar tarbiyalab berishi, o'tmishda va hozirda o'g'il bolalar va qiz bolalarning ta'lim olishidagi farqlari haqida g'oyalas etgan.

KALIT SO'ZLAR: xotin-qizlar, jamiyat, oliv o'quv yurtlari, bilim, rivojlanish, imtiyozlar, tarbiyalash, bilimdon yoshlar.

Har qanday jamiyatning ma`naviy va madaniy darajasi ularning ayollarga bo`lgan munosabati bilan belgilanadi desak mubolag'a bo`lmaydi. Hozirgi kunda qizlarning ta'lim olishi xuddi global muommodek keng tus olgan. O'tmishdan farqli o`laroq, ular ta'lim- tarbiya olishi bilan bir qatorda, o'z bilimi orqali o`zlarining jamiyatdagi o'rni va mavqeyini tiklab olyapdi. Bu kabi qator o`zgarishlar nafaqat oilalarning, balki bo`lg`usi yosh- avlodning va mamlakatning ma`naviy jihatdan boyishiga o'z ta'sirini ko`rsatmoqda. Demak bugungi kunda barqaror rivojlanish ga erishishda faqatgina erkaklar emas, ayollarning o'rni ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bularni inobatga olgan holda har yili 11- fevralda ilm- fanda xotin- qizlar ishtiroki xalqaro kuni deb e`lon qilingan.

Ayni vaqtida, mamlakatimiz rahbari maktabni tamomlagan yosh o'smir qizlarga oliv o'quv yurtlarida tahsil olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Jumladan, kirish kvotalari soni keskin oshmoqda. Maqsad – deyarli barcha ayollarni oliv ma'lumotli qilish va kelgusiga bilimdon va komil farzandlar yetishtirish ko`zda tutilgan. Zero, keljak- avlodni qay yo`sinda tarbiyalash mana shu ayollarimiz va qizlarimiz qo`lidadir.

Binobarin, hozirgi vaqtida O'zbekistonda xotin- qizlarning 7 nafari – akademik, 271 nafari – fan doktori, 1411 nafari falsafa fanlari doktori ilmiy darajasi sohibalari hisoblanadi. Ammo bu bilan biz ayollar butun dunyo bo'yicha ilm- fan sohasida yuqori o`rinlarda deya olmaymiz. Chunki ayollar ichida NOBEL mukofoti sovrindorlari dunyo bo'yicha atigi 3 % ni tashkil etishi buni ochiq -oydin tasdiqlaydi.

Lekin hozirgi paytda oliv o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning aksariyati qizlarni tashkil qiladi va aminmizki, vaqtlar o'tib biz kutgan va istagan jamiyat aqlli va bilimdon yoshlardan tarkib topadi.

Shu bilan bir qatorda , ma'rifatparvar Abdulla Avloniy bobomizning: "Qizlar hammadan ko`ra bilim olishga intilishi kerak, chunki bu bilim bilan keljak – avlodni tarbiyalaydi " degan qarashlari zamirida xuddi shu yuqorida aytilgan fikrlar yotadi. Anglash joizki, ilmli ayollar ilmli farzandlarni, ilmsiz ayollar ilmsiz farzandlarni ulg`aytiradi. Guvohi bo`lganimizdek, shu yilning o'zida milliy

parlament tizimida ayollar va erkaklar teng ekanligi isbotlandi. Ayol kishining mana shunday kasb egasi bo`lishi-o`zining bilim salohiyatini yuksaltirishi hamda jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki ayollar erkaklardan farqli o`laroq, ham farzand tarbiyachisi, ham kasb sohibi bo`lishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, ayollar o`z kasbiga chuqr mas`uliyat va shijoat bilan, hamda ijtimoiy masalalarga chin yurakdan his qilib yondashadi. Ular o`z manfaatlarini emas, balki kelajakni, jamiyatni, xalqni, yurtni o`ylagan holda qaror qabul qiladilar. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining raisi – Tanzila Narbayeva aytganidek, ayollarning ta`lim olishi va boshqa sohalarda erkaklar bilan tengligi yuzasidan qonun va qarorlar qabul qilimgan bo`lsada, bu boradagi islohotlarning aksariyati qog`ozda qolib ketdi.

Ayrim holatlarda ayollar o`zlarini namoyon etishlari uchun sharoitlar kamlik qildi. Umuman olganda, ularga imtiyozlar yaratish bo`yicha huquqiy baza yaratilgan bo`lsada, shularni ro`yobga chiqarish bo`yicha aniq « Yo`l xaritasi » haqiqatan ishlab chiqilmagan edi. Oqibatda jamiyatning aslida faol bo`lishi kerak bo`lgan qatlami tobora passivlashib ketti.

Yaqin- yaqingacha ham qizlarimizning ta`lim olishi oliy o`quv yurtlarigacha bo`lgan muddatgacha chegaralangan edi. Ta`lim sohasining o`zida o`g`il va qiz bolalarimiz o`rtasida farq mavjud bo`lgan. O`g`il bolalar va qiz bolalar maktabni tamomlaganidan so`ng yigitlar turli oliy o`quv yurtlariga o`z yo`nalishi bo`yicha ta`lim olishni davom ettirgan. Qizlar bo`lsa aksincha edi. Balki maktablar majburiy bo`lganligi uchungina ular maktabda o`qishgan bo`lishi ham mumkin.

Xalq o`z nazarida faqat o`g`il bolalar o`qishi va ta`lim olishi kerak deb bilgan. Vaholanki, ayollarning ta`lim olishi ularnikidan muhimroq. Zero, nodon otalardan dono, yolg`onchi otalardan rostgo`y, yomon otalardan yaxshi farzandlar tug`ilishi mumkin, ammo ilmsiz ayollardan ilmli farzandlar, ibosiz ayollardan hayoli farzandlar yetishib chiqmaydi.

Demak qiz bola oliy ma`lumotli bo`lar ekan, qanchalik bilim va ko`nikma olsa, buni kelgusida farzandlariga ham yuqtiradi va har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazadi. Shunday qilib, xotin- qizlarimizning jamiyatda o`z o`rnini topishida birinchi o`rinda, ota- onalarning munosabati katta ro`l o`ynasa, ikkinchidan oliy ta`limda ularni qamrab olish muhim o`rin tutadi.

Bundan tashqari aksar hollarda qizlar talaba holida turmushga chiqqudek bo`lsa, uning bo`lg`usi oilasida turli muommo va qiyinchiliklar paydo bo`lishi mumkin. Chunki ba`zi kelinlar qaynona va qaynotalari tomonidan kelinining ta`lim olishiga ko`z yumib, “ O`qib kim ham bo`larding ? ” kabi tan`a va malomatlariga qolishi ham mumkin. Ammo hozirgi kunda bu fikrlashlar ortda qolib, o`rnini zamonaviy fikrlaydigan ota- onalar, qaynona va qaynotalarning ijobiy fikrlari o`z o`rnini topyapdi. Shu bilan bir qatorda bu qog`ozda emas, hayotta ham asta- sekin o`z yechimini topmoqda.

Yil o`tgan sayin, qizlarning ta`lim olishi uchun Prezidentimiz tomonidan ko`pdan ko`p qulaylik va yengilliklar berilmoqda. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “ Oila va xotin- qizlarni tizimli qo`llab- quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora - tadbirlari to`g`risida ” farmoniga muvofiq 2022- 2023 o`quv yilidan boshlab davlat oliy ta`lim muassasalarining magistratura

bosqichiga to'lov- kontraktning to'liq summasi Davlat budjeti tomonidan to'liq qoplab beriladi.

Bundan tashqari Prezidentimizning 2022- yil 18- iyuldagи “ Oliy o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin- qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora - tadbirlar to'g'risidagi ” qaroriga muvofiq imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Unga ko'ra, tijorat banklari Moliya vazirligi tomonidan joylashtirilgan depozit mablag'lari hisobidan ta'lim kreditlarini 14 % stavkada ajratadi. Ta'lim kreditining asosiy qismi talabaning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab yetti yil davomida qaytariladi. Bu kabi qulayliklar xotin- qizlarimizning o'qishi uchun yana bir imkoniyat bo'ldi. Xulosa qilib aytganda, donishmandlarning “o'g'lingizni o'qitibsiz o'zingizga yaxshilik qilibsiz, qizingizni o'qitibsiz, jamiyatga yaxshilik qilibsiz ” degan naqllari o'rinni.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Usmonova N. Xotin-qizlar himoyasi doimiy e'tiborda. https://uza.uz/uz/posts/hotin-qizlarhimoyasi-doimiy-etiborda_2708099. Strauss A., Korbin Dj. Osnovы kachestvennogo issledovaniya: obosnovannaya teoriya, protsedury i texniki. Basics of Qualitative Research: Grounded Theory Procedures and Techniques. – Moskva: Editorial URSS, 2001. – 256 s.
- 2.Violence against women Prevalence Estimates, 2018. Global, regional and national prevalence estimates for intimate partner violence against women and global and regional prevalence estimates for non-partner sexual violence against women. WHO: Geneva, 2021. <file:///C:/Users/violance%20against%20women.pdf>
- 3.“Xotin qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi O'RQ-561-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/4494709>
- 4..Toshpo'latova, N. (2021). CHET TILI FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH USULLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2)
- 5.Toshpo'latova, N. (2022). OILADA MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALARING VAZIFALARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5).
- 6.Норбекова, Б., & Орокбоева, М. (2022). Sharq mutafakkirlarining oilada bolalar shaxsida etnopsixologik xususiyatlarni tarbiyalash haqidagi qarashlari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденций: решения и перспективы, 1(1), 440-442.
- 7.Umarov Baxriddin Mingboyevich, & Norbekova Barno Shavkatovna. (2022). TA'LIM TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA DARS JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK MEZONLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(1), 276–279. Retrieved from <https://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/71>
- 8.Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O 'TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O 'SMIRLAR KELIB CHIQISHIGA TA'SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.

- 9.Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. Общество и инновации. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
- 10.Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 658-662.
- 11.Norbekova, B. (2022). O‘roqboyeva M. Maktabgacha ta ‘limda psixologik xizmatni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 481-483.
- 12.Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
- 13.Alibekov D. SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYa SISTEMY OBRAZOVANIYa //Jurnal muzlyki i iskusstva. – 2021. – T. 2. – №. 2.
- 14.Farsakhanova, Dilafruz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI* (2020).
- 15.Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlari." *Jurnal muzlyki i iskusstva* 2.1 (2021).
- 16.Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA’LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSİYALARİNG AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7730>
- 17.Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA BERILADIGAN TA’LIM MAZMUNI. In E Conference Zone (pp. 22-25).
- 18.Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. Open Access Repository, 4(2), 500-505.
- 19.Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSİONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFİZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).
- 20.Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSİYA-OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
- 21.Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
- 22.Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In E Conference Zone (pp. 11-16).

- 23.Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). PROFESSIONAL MOTIVATION AND ITS STRUCTURE IN THE MANAGEMENT PROCESS. In E Conference Zone (pp. 11-16).
- 24.Madina, A., & Lobar, R. (2023). HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 375-379.
- 25.Madina, A., & Donoxon, M. (2023). OILADA YOSHLARNI TOLERANT MADANIYATLI QILIB TARBIYALASH VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 353-358.
- 26.Madina, A. (2023). BOLALARDA AHLOQIY FAZILATLARNI PSIXOLOGIK SHAKLLANTIRISH USULLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 340-345.
- 27.Shamsidinovna, A. M. (2023, May). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AHLOQIY JIHATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI. In *E Conference Zone* (pp. 6-12).
- 28.Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O'QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. In *E Conference Zone* (pp. 1-5).
- 29.Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).
- 30.Alibekov, D. (2023). INTERFAOL METODLARNING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 162-167. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9136>